

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 143 (1742), 2026-yil 16-iyul, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



BELARUS BILAN HUDUDLARARO HAMKORLIK AMALIY NATIJAGA AYLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Belarusga tashrif davomida hududlararo hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha erishilgan kelishuvlar ijrosiga doir taqdimot bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, davlatimiz rahbarining 8-9-iyul kunlari ushbu mamlakatga amalga oshirilgan rasmiy tashrifi chog‘ida o‘zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazish, mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, to‘qimachilik, yog‘ochni qayta ishlash va tibbiyot sohalarida umumiy qiymati 2 milliard dollarlik 310 ta loyiha va chora-tadbiri ro‘yobga chiqarish bo‘yicha muhim kelishuvlarga erishildi.

Davlatimiz rahbari ularni qisqa muddatda amaliy natijaga aylantirish, yangi korxonalar va ish o‘rinlarini tashkil etish, tadbirkorlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimligini ta’kidladi.

Belarusda investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun taklif etilayotgan sanoat obyektlari, davlat mulki va keng qishloq xo‘jaligi yerlari mavjud. Mamlakat hududining 40 foizini yoki 8 million gektarini qishloq xo‘jaligi maydonlari tashkil etadi.

Bu imkoniyatlar qo‘shma ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish, agrar kooperatsiyani rivojlantirish, tadbirkorlik aloqalarini kengaytirish hamda fuqarolarni tashkiliy asosda ish bilan ta‘minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Bunda Belarusda ishlash yoki biznes yuritish istagidagi fuqarolar va tadbirkorlar ro‘yxatini shakllantirib, Belarus tomoni bilan

oldindan kelishib, ish joyi, yashash sharoiti, loyiha uchun zarur bino va yer masalalarini hal etgan holda ularning borishini tashkil qilish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Taqdimotda Andijon va Vitebsk viloyatlari o‘rtasidagi hamkorlik doirasida bajarilgan ishlar haqida axborot berildi.

Ikki hudud o‘rtasida “yo‘l xaritasi” tasdiqlanib, aniq tashabbuslarni ro‘yobga chiqarish boshlangan. Jumladan, 255 nafar Andijon viloyati fuqarosining tashkiliy asosda Vitebskka borishi va bandligi ta‘minlandi.

► Davomi 2-betda

O‘zbekiston – Belarus hamkorligi: ANDIJON VA VITEBSK QO‘SHMA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRMOQDA

Oliy darajadagi O‘zbekiston — Belarus kelishuvlariga muvofiq, Andijon viloyatining dastlabki 255 nafar fuqarosi Belarusga yetib bordi.

Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko va Andijon viloyati hokimi Shuhrat Abdurahmonov Vitebsk viloyatida bo‘lib, qo‘shma loyihalarini amalga oshirish masalalarini muhokama qildi.

Hamkorlik rejalarini O‘zbekiston Prezidenti

Shavkat Mirziyoyevning 8-9-iyul kunlari Belarusga rasmiy tashrifi chog‘ida ikki mamlakat o‘rtasida erishilgan kelishuvlar doirasida rivojlantirilmogda. Ular turli sohalarga samoya kiritish va O‘zbekiston fuqarolarini Belarusga ishlashga jalb qilishni nazarda tutadi.

“Men O‘zbekiston Prezidentiga buni amalga oshirishga va‘da berdim. Bu biz uchun manfaatli. Shu tariqa Vitebsk viloyati rivojlanadi”, — dedi Prezident Aleksandr Lukashenko.

► Davomi 2-betda

YANGI AVLOD RAHBARLARINI TANLASHDA OCHIQLIK VA XOLISLIK TA‘MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtidorli boshqaruvchilar, liderlar va yangi avlod rahbarlarini aniqlash va tanlash hamda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali iste‘odli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston intellektual salohiyat va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda. Mamlakatimizga har yili 50 milliard dollardan ziyod investitsiya kirib kelmoqda, eksport hajmi 40 milliard dollarga yaqinlashmoqda, zamonaviy korxonalar ishga tushirilmogda.

Bunday sharoitda professional davlat xizmati va raqobatbardosh iqtisodiyot uchun zarur kadrlarni oldindan tayyorlash strategik ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvida kadrlarni tanlash va baholash tizimi izchil raqamlashtirildi. Ilk bor 87,7 ming nafar davlat xizmatchisining yagona elektron ma‘lumotlar bazasi shakllantirildi. Davlat xizmatiga qabul qilish ochiq tanlov asosida, nomzodlarning bilim va ko‘nikmalarini inson omilisiz baholash orqali amalga oshirilmogda.

Taqdimotda sun‘iy intellekt yordamida tarmoqlar va hududlarning drayver sohalari tahlil qilinib, 50 dan ortiq zamonaviy kasb bo‘yicha boshqaruv kadrlariga ehtiyoj mavjudligi aniqlangani qayd etildi. Ayniqsa, energetika va “yashil” texnologiyalar, qurilish va urbanizatsiya, qishloq va suv xo‘jaligi, raqamlashtirish hamda xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida malakali mutaxassislarga talab yuqori.

Davlatimiz rahbari tayyor kadrlar bazasi bo‘lmasa, boshqaruv tizimida uzilishlar yuz berishi, ish samaradorligi va qarorlar sifati pasayishini ta’kidladi.

Kadrlarni baholashda eskicha “obyektivka” usulidan voz kechib, nomzodning bilimi, kasbiy tajribasi, psixologik xususiyatlari, strategik fikrlashi va liderlik qobiliyatini qamrab oladigan

portfolio tizimiga o‘tish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Yangi tartibga ko‘ra, istiqbolli boshqaruvchilar raqamli texnologiyalar asosida 100 ballik mezon bo‘yicha baholanadi. Katta ma‘lumotlar va biznes-tahlil vositalari orqali yuqori salohiyatli kadrlar aniqlanib, ular uchun sun‘iy intellekt yordamida individual kasbiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqiladi. Mazkur tizimni dastlab qishloq xo‘jaligi, oliy ta‘lim va qurilish sohalarida sinovdan o‘tkazish taklif etildi.

Har ikki yilda 500 nafar istiqbolli boshqaruvchini saralab olish, shu tariqa 2030-yilga qadar 1,5 ming nafar yuqori salohiyatli mutaxassisidan iborat yangi avlod rahbar kadrlar xazirasini yaratish rejalashtirilgan.

Taqdimotda rahbarlik lavozimlari uchun zaxirani shaffof shakllantirishga qaratilgan “TOP-100” ochiq tanlovini o‘tkazish mexanizmi ham bayon qilindi. Tanlov agrar soha, sog‘liqni saqlash, tadbirkorlik, sud-huquq, ta‘lim, axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Nomzodlar test, kompleks kasbiy baholash va suhbat bosqichlaridan o‘tadi. G‘oliblar maxsus o‘quv kurslarida tayyorlanib, milliy kadrlar xazirasiga kiritiladi, ularning kasbiy o‘sishi va rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi bo‘yicha manzilli choralar ko‘riladi.

Milliy kadrlar xazirasini shakllantirishda xorijdagi vatandoshlar, shuningdek, dunyoning eng nufuzli 100 ta universitetini tamomlagan va ularda tahsil olayotgan yoshlar salohiyatidan samarali foydalanish muhimligi ta’kidlandi.

Bu borada 2026-yil 1-oktabrdan career.edu.uz platformasida “Xorijdagi talabalar”

modulini ishga tushirish rejalashtirilgan. U orqali chet elda ta‘lim olayotgan yoshlar davlat idoralari va xususiy korxonalarga birlashtiriladi, ularning amaliyot o‘tashi, ish beruvchilar bilan muloqoti hamda kelgusida ishga jalb qilinishi ta‘minlanadi.

Yig‘ilishda “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish masalalariga ham e‘tibor qaratildi. O‘tgan yili jamg‘arma transformatsiya qilingani natijasida dunyoning eng nufuzli 100 ta oliygohi talabasi bo‘lgan stipendiatlar ulushi 30 foizdan 80 foizga yetdi. So‘nggi yilda yangi tartib asosida o‘tkazilgan uchta tanlovda 447 nafar iqtidorli yosh stipendiya sohibi bo‘ldi.

Shu bilan birga, jamg‘arma dasturlarini hudud va tarmoqlarning aniq ehtiyojlariga bog‘lash zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Iqtidorli yoshlarni xorijiy universitetlarda manzilli tayyorlash, o‘qish xarajatlarini yirik korxonalar bilan birgalikda moliyalashtirish, nufuzli xorijiy oliygohlar bilan qo‘shma dasturlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Shuningdek, bitiruvchilarning ilmiy tadqiqotlari, startaplari va islohotlarga qaratilgan tashabbuslarini kichik grantlar orqali qo‘llab-quvvatlash, yuqori bo‘g‘in rahbarlari uchun Singapur, Malayziya, Buyuk Britaniya va Yaponiya tajribasi asosida liderlik dasturlarini tashkil etish rejalarini ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz kadrlarni saralashda ochiqlik va xolislikni ta‘minlash, iqtidorli mutaxassislarni tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlash hamda ularning salohiyatidan mamlakat taraqqiyoti yo‘lida samarali foydalanish bo‘yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O‘ZA

Islohot odimlari

G‘O‘ZANING “MEROSI” DALADA QOLMASIN

yoxud PAXTANI faqat O‘STIRISH emas, vaqtida PISHIRISH ham kerak

Bugun O‘zbekiston paxtachiligi yangi bosqichga kirmogda. Qishloq xo‘jaligida, jumladan, paxtachilikda ham bozor tamoyillari, fermer va klasterlarni qo‘llab-quvvatlash, yangi navlar, yuqori hosilli texnologiyalar, urug‘chilikni yaxshilash, suv tejash, imtiyozli kreditlar, subsidiya, texnika va ilim-fanga asoslangan boshqaruv tizimlari izchil joriy etilmogda.



Bu islohotlardan maqsad kamroq yerdan ko‘proq va sifatliroq mahsulot olish, fermer daromadini oshirish, to‘qimachilik sanoatini barqaror paxta xomashyosi bilan ta‘minlash va iqtisodiyotda paxtachilikning haqiqiy samarasini ko‘rsatishdir.

So‘nggi oltmish yil ichida dunyo bo‘ylab paxta hosildorligi sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunda yetakchi mamlakatlar nihoyatda yuqori natijalarga erishmogda: Xitoy gektaridan taxminan o‘rtacha 90 sentnergacha paxta xomashyosini yetishtirish bilan dunyoda birinchi o‘ringa chiqib olgan bo‘lsa, bu borada Avstraliya 55 sentner, Turkiya esa taxminan 50 sentner o‘rtacha ko‘rsatkichga ega. Braziliyada hosildorlik o‘rtacha 40-45 sentnerni tashkil etmogda. AQSH, Pokiston va Hindiston esa sharoitga qarab 15-25 sentnergacha paxta xomashyosi olmogda. Dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 30-35 sentner orasida kuzatilmogda.

Shu fonda O‘zbekistonning paxtachilik tarixi alohida e‘tiborga molik. Uzoq yillar davomida mamlakatimizda paxta xomashyosi hosildorligi gektariga o‘rtacha 25-30 sentner atrofida qolib keldi — ba’zi yillarda esa bu raqamning o‘ziga ham yetib bo‘lmadi. Asrlar davomida paxta ekib kelgan, Farg‘ona va Zarafshon vodiylarida serunum sug‘oriladigan yerlarga ega. Dunyodagi eng katta paxta maydonlaridan biriga ega mamlakat uchun bunday orqada qolish o‘ta ajablanarli holat edi. O‘tgan yili esa dalalardan 70-90 sentnergacha paxta xomashyosi ko‘tarilib, yurtimizda o‘rtacha hosildorlik 45 sentnerga yetdi. Bu salmoqli qadam bo‘ldi.

► Davomi 3-betda

Kun mavzusi



OpenBudget
O‘zbekiston Respublikasi
"Ochiq Budget" Portali

TASHABBUSLI BUDJET

Ikkinchi mavsum uchun takliflar kiritish boshlandi

Odamlarni birlashtiradigan, yagona maqsad yo‘lida jipslashtiradigan loyihalarining ko‘p bo‘lgani yaxshi. Keyingi yillarda umummilliy harakatga aylangan “Tashabbusli budget” loyihasi shulardan biri. Yilda ikki marotaba o‘tkazilayotgan loyihani yurtdoshlarimiz har gal katta qiziqish va tayyorgarlik bilan kutadi. Chunki g‘olib bo‘la olmagan tashabbuslar uchun keyingi mavsum yana bir imkoniyat degani.

Kecha, 15-iyul kuni “Tashabbusli budget”ning 2026-yildagi 2-mavsumi boshlandi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, bu “Tashabbusli budget” joriy etilganidan buyon o‘tkazilayotgan o‘n birinchi mavsumdir. Odatdagidek, jarayon bir

necha bosqichda davom etib, yakunda g‘olib loyihalar tanlab olinadi va davlat budgetidan moliyalashtiriladi.

► Davomi 4-betda

PENSIYA TIZIMI MODERNIZATSIYASI

Ijtimoiy adolat, moliyaviy barqarorlik va avlodlar farovonligining strategik yo‘nalishlari

Munosabat



Bugungi kunda dunyo aholisi tarkibidagi demografik o‘zgarishlar ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri – pensiya tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymogda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, hozirda har bir soniyada dunyoda o‘rtacha ikki nafar inson 60 yoshga to‘lar ekan. Qolaversa, sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi, tibbiyot sohasidagi ilmiy yutuqlar, sanitariya va profilaktika choralarining takomillashishi, aholi turmush darajasining yuksalishi natijasida inson umri uzayib, keksa avlod vakillari ulushi ko‘payib boryapti.

Uzoq umr ko‘rish — insoniyat taraqqiyotining eng katta yutuqlaridan biri. Biroq mazkur ijobiy jarayon pensiya tizimlarining barqarorligi bilan bog‘liq yangi masalalarni ham kun tartibiga olib chiqmogda. Zamonaviy sharoitlarda jahon amaliyotida pensiya ta‘minotining asosiy uch modeli shakllangan. Birinchi model — ijtimoiy yordam tizimi. U aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikka qarshi kurashish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

► Davomi 2-betda

Intilganga tole yor

ILM, MA‘RIFAT VA KITOB TUFAYLI BUGUNIMIZ NURLI, ERTAMIZ MUNAVVAR



Haqli ravishda aytish lozimki, bugun mamlakatimizda bo‘lgani kabi Sirdaryo viloyati ham taraqqiyot bosqichlaridan dadillik bilan o‘tib boryapti. Ba‘zilar “Sirdaryo o‘zi 1963-yilda tashkil topgan viloyat bo‘lsa, qoloqligi turgan gap-da”, deyidigan zamonlar ortda qoldi. Bugun hech kim bunday deya olmaydi.

Bugun Prezidentimiz “Sirdaryo deganda, sirdaryolik deganda azim Sayxun daryosi sohillaridagi so‘lim bir voha, qadimiy Mirzacho‘l bag‘rida bog‘u bo‘stonlar, shahar va qishloqlar bunyod etib kelayotgan mard va matonatli insonlar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi”, deya biz sirdaryoliklarning ko‘ksimizni tog‘ qadar ko‘tarib qo‘ygan.

► Davomi 6-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



Islahot odimlari

G‘O‘ZANING “MEROSI”

DALADA QOLMASIN

yoxud PAXTANI faqat O‘STIRISH emas, vaqtida PISHIRISH ham KERAK

Ibrohim ABDURAHMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi qishloq
xo‘jaligi vaziri, akademik

Boshlanishi 1-betda

Xo‘sh, nima uchun O‘zbekiston oldingi yillarda o‘z imkoniyatidan ancha past natija ko‘rsatgan edi? Biz nimada xato qilardik va oxirgi yildagi o‘‘sishning sababi nima? Nega endi birdaniga yuqori natija bo‘ldi, nima o‘zgardi? Bu savol ko‘pchilikni qiziqtiradi.

Sohaga mas‘ul sifatida menga ko‘p savol berishadi: “Bu rostmi?” Yoki oldingi tarixdagidek: “Qog‘ozdagi gap emasmi?”, “Ha, endi har 10 yilda bir paxta bo‘ladigan yil keladi, bu yil bo‘larmikan?”. Shunga o‘xshash ikkilanishli savollar ko‘p.

So‘nggi sakkiz yilda juda ko‘p narsani o‘zgartirdik: ko‘chat qalinligi va ekish sxemasi yangilandi, ko‘sak qurti va begona o‘tlarga chidamli biotexnologik navlar olib kelindi, mahalliy yangilangan genotiplar rayonlashtirildi, klasterlar tizimi ishga tushirildi, davlat tomonidan misli ko‘rilmagan qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yildi. Yaqinda Paxtachilik kengashi a‘zolari bilan dunyoning nufuzli Nature Portfolio tizimidagi Scientific Reports jurnalida tarixiy o‘zgarishlarni ilmiy asoslab, 2030-yilgacha prognozlar tahlil qilingan maqolamiz chop etildi. Xalqaro jamoatchilik buni model sifatida e‘tirof eta boshladi.

Biroq mahalliy jamoalarimiz hali-hamon “rostmikan” degan ikkilanishda. Shu nuqtayi nazardan, paxtachilikning 8 qoidasini e‘lon qildik, fermerlarni o‘tgan olti oy mobaynida o‘qitdik. Natija dalada ko‘rina boshladi. Ammo paxtachilikda eng muhim palla boshlanish arafasida va har qanday ikkilanish va qoidaga amal qilmaslik katta zarar berishini bugun oddiy qilib hammaga tushuntirish o‘ta dolzarb. Keling, tushunarliroq bo‘lishi uchun avval g‘o‘za va uning vegetatsiyasi haqida to‘xtalaylik.

Bizda paxta to‘la
pishdimi o‘zi?

O‘zbekiston paxta yetishtiruvchilar ichida eng shimolda joylashgan mamlakat bo‘lib, bizda g‘o‘zaning barqaror o‘sib, to‘liq hosil berishi ancha murakkab. Aslida, tabiiy vegetatsiya davri 170-250 kungacha cho‘ziladigan g‘o‘za Amerika, Afrika yoki Avstraliya mintaqalaridagi paxta yetishtiruvchi mamlakatlarda uzoq issiq mavsum hisobiga to‘la pishib yetilish imkoniyatiga ega bo‘lsa, aksincha, O‘zbekiston sharoitida, garchi quyosh, issiqlik, suv, dehqonchilik tajribasi va parvarish madaniyati yetarli bo‘lsa-da, g‘o‘zaning tabiiy jihatdan “to‘la” pishib yetilishi har doim ham oson kechmaydi. Vegetatsiya imkoniyati amalda 120-130 kun atrofida bo‘ladigan yurtimizda qishning sovuq kunlari odatda oktyabr oxiri — noyabr boshidan sezila boshlasa ham avgust-sentyabr oylarida, hatto oktyabr boshida ham g‘o‘za o‘sishga, shoxlashga, barg chiqarishga, gullashga va yangi ko‘sak bog‘lashga intilaveradi.

Albatta, shu o‘rinda o‘zbek seleksionerlarining oxirgi yuz yillikdagi eng katta tarixiy yutuq‘ini alohida e‘tirof etish kerak: ular g‘o‘zaning tabiatan uzoq vegetatsiyaga moyil navlarini O‘zbekistonning 110-130 kunlik qisqa mavsumida pishib yetila oladigan madaniy navlarga aylantirishga ulkan hissa qo‘shdi. Bu mamlakat paxtachiligi, milliy seleksiya maktabi va ilm-fanimizning katta muvaffaqiyati. Biroq o‘tgan yillardagi tajriba ko‘rsatmoqdaki, ertapishar navning o‘zi ham to‘liq yechim bo‘la olmaydi.

Shuning uchun O‘zbekistonda yaratilgan g‘o‘zanavlar ertapishar bo‘lsa-da, “g‘o‘za yaxshi rivojlanyaptimi”, degan savol bilan birga, “g‘o‘za o‘z vaqtida pishadimi”, “ko‘sak ochilarmikan”, “paxta tosh bosarmikan”, “fermerning butun mavsum davomida qilgan mehnati haqiqiy terib

olinadigan hosilga aylanarmikan yoki bir qismi ochildimagan ko‘saklar ko‘rinishida dalada qolib ketarmikan?”, degan savollar bugun juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Paxtada haqiqiy hosil ko‘z bilan sanab qo‘yilgan yashil ko‘sak emas. Haqiqiy hosil pishgan, ochilgan, tolasi shakllangan, chigiti to‘lgan, vazni og‘ir va terib olingan lo‘ppi paxtadir. Dalada ko‘p ko‘sak turishi barchamizning ko‘zimizni quvontiradi, albatta, lekin agar o‘sha ko‘saklar kuz sovuq‘i kirguncha ochildmasa, tola pishib yetilmasa, u terim savatiga tushmasa, chamlangan hosil amalda fermer daromadiga aylanmaydi.

G‘o‘za qisqa mavsumli, tez pishib beradigan oddiy bir yillik o‘simlik emas. Uning tabiiy kelib chiqishida ko‘p yillik, daraxtsimon-butasion xususiyat bor. Sharoit bo‘lsa, g‘o‘za o‘sishda davom etadi, yana shoxlaydi, yana barg chiqaradi, yana gullaydi, yana yangi ko‘sak tugaveradi. Bu tiriklikning maqsadi va qonuniyatidir. Biroq biz dehqonchilikda tabiatning mana shu qonuniyatlarini boshqarmasak, o‘simlikni o‘z vaqtida hosil berishga yo‘naltirmasak, ayniqsa, O‘zbekiston kabi qisqa mavsumli mintaqada g‘o‘za o‘zining uzoq o‘sishga moyil tabiati bilan biz kutgan hosilni berishga ulgurmaydi.

Tarix ham, ilm ham bir narsani
ko‘rsatadi

Tarixga nazar tashlasak, Amerika qit‘asining tub aholisi g‘o‘zani madaniylashtirish jarayonida, mana shu tabiiy muammoga o‘zlari bilmagan holda javob topgan. Ular sovuq tushishidan oldin qishlov joylarga ko‘chishga tayyorlangan, qalampir hosilini yig‘ishtirish jarayonida, pishib yetilgan paxta ko‘saklarini ham yig‘ib olgan, ertaroq ochilgan ko‘sak urug‘ini saqlagan, keyingi mavsumda yana qalampir bilan birga ekan. Bu oddiy ko‘rangan dehqonchilik odati, ya‘ni ertapishar qalampir ekin ertapishar paxta genotipini tanlashga yordam bergan. Shu tariqa tabiatda uzoq yashovchi, daraxtsimon-butasion o‘simlik asta-sekin dala ekiniga, ertaroq pishadigan madaniy navlarga, tolasi inson hayotiga xizmat qiladigan ekinga aylangan.

Keyinchalik yevropaliklar Amerika qit‘asiga kirib borgach, u yerda tub aholi



tomonidan madaniylashtirilgan g‘o‘za urug‘lari namunalarini dunyoning turli hududlariga tarqatgan. Shuning uchun bugun dunyoda va bizda keng ekiladigan Amerika g‘o‘zasi, fanda Upland cotton deb ataladigan guruhning genetik asosi ham tarixan nisbatan tor bo‘lib qolgani ilm-fanda yaxshi qayd etilgan. Bu bizga yana bir muhim saboq beradi: paxtachilikda nav qanchalik muhim bo‘lmasin, navning o‘zi hamma muammoni hal qilib bermaydi. Ayniqsa, vegetatsiya davri qisqa bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida ertapishar nav bilan birga pishishni boshqarish texnologiyasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda paxtadan yuqori
hosil olsa bo‘ladimi?

Demak, paxtachilik tarixi ham, bugungi ilm-fan ham, O‘zbekiston dala tajribasi ham bitta haqiqatni ko‘rsatmoqda: g‘o‘za faqat o‘stiriladigan o‘simlik emas, u pishiriladigan, mavsum oxirida to‘g‘ri yo‘naltiriladigan, butun to‘plagan ozuqasini ko‘sakka o‘tkazishga yordam berilishi kerak bo‘lgan ekin. Jo‘n qilib aytganda, g‘o‘za navlariga agar kompyuterning texnik asosi, ya‘ni hardware deb qaralsa, bu



“So‘nggi yillarda hosildorlikda ko‘rinayotgan ijobiy o‘zgarishlar, yangi navlar va texnologiyalarning natijasi, fermer va klasterlarning tajribasi, ilmiy tavsiyalarga e‘tibor oshishi dalolat beradiki, agar biz paxtachilikka tizim sifatida yondashsak, O‘zbekiston sharoitida ham yuqori hosil olish mumkin.

kompyuterga pishib yetilishini ta‘minlaydigan dasturiy ta‘minot, ya‘ni software o‘rnatilishi kerak. Aks holda kompyuter, ya‘ni nav qanchalik zamonaviy, qanchalik ko‘p funksiyali va yuqori hosil salohiyatiga ega bo‘lmasin, dastursiz to‘liq ishlamaydi, demak, hosildorlik imkoniyati ham to‘liq ochilmaydi.

So‘nggi yillarda hosildorlikda ko‘rinayotgan ijobiy o‘zgarishlar, yangi navlar va texnologiyalarning natijasi, fermer va klasterlarning tajribasi, ilmiy tavsiyalarga e‘tibor oshishi dalolat beradiki, agar biz paxtachilikka tizim sifatida yondashsak, O‘zbekiston sharoitida ham yuqori hosil olish mumkin. Ammo har qanday islohotning samarasi oxirgi halqada — dalada, texnologiya intizomida, fermerning amaliy harakatida, mutaxassisning nazoratida va mahalliy rahbarning mas‘uliyatida ko‘rinadi. Agar urug‘ yaxshi bo‘lsa-yu, ekish kechiksa, suv va o‘g‘it berilsa-yu, pishish boshqarilmasa,

oshirilgan holatlar bo‘lgan. Ya‘ni kompyuter dastursiz qoldirilgan, yakuniy algoritmlar ishlamay qolgan. Buni yashirish emas, to‘g‘ri xulosa qilish kerak.

Biz ko‘p yillar davomida ko‘sakni ko‘rib yupanganmiz, ammo ochildimagan ko‘sakning hech emasligini yetarlicha hisobga olmaganmiz. Biz yashil g‘o‘zani ko‘rib, “g‘o‘za hali ishlamaypti, yana hech bo‘lmasa bir-ikkita ko‘sak olsin”, deb o‘ylaganmiz, ammo mavsum oxirida yashillik ba‘zan kechikish belgisi ekanini anglamaganmiz. Biz desikatsiyadan qochganmiz, ammo poya va ildizda to‘plangan ozuqa sovuq tushganda chirib ketishi, fermer mehnati esa to‘liq daromadga aylanmasligi muhimligini tasavvur qila olmaganmiz. Afsuski, oramizda hali-hanuz buni to‘la tushunmaganlar bor.

G‘o‘za o‘z “merosi”ni
bolalariga berishi kerak

Hayotning o‘zgarmas qonuni bor: har bir tirik mavjudot o‘zidan keyin avlod qoldirishga intiladi. Inson ham umri davomida topganini, bilganini, mehnatini, mehnini farzandlariga qoldirishni o‘ylaydi. Tabiatda o‘simlik ham o‘z avlodini — urug‘ini qoldirishga harakat qiladi. G‘o‘za uchun bu avlod ko‘sak ichidagi chigit va uni o‘rab turgan toladir. Shu ma‘noda, mavsum oxirida g‘o‘zaning butun vazifasi poya, shox, barg va ildizda to‘plagan ozuqasini ko‘sakka, chigitga va tolaga o‘tkazishdan iborat bo‘lishi kerak. Xalqona qilib aytganda, g‘o‘za o‘z “merosi”ni bolalariga — ko‘saklarga berishi kerak.

Lekin agar biz g‘o‘zani vaqtida pishishga yo‘naltirmasak, u o‘z genetikasida yozilgan 170-250 kunlik pishish dasturiga ko‘ra, sentyabr-oktyabr oylarida ham, ya‘ni bizda amalda 120-130 kunlik vegetatsiya imkoniyati tugayotgan paytda o‘zini hali mavsum tugamagandek tutadi: yana barg chiqaradi, yana gullaydi, yana mayda ko‘sak bog‘laydi, poya yashil qoladi, ildiz va poyadagi ozuqa xaxirada saqlanib turaveradi. Chunki g‘o‘zada tabiiy dasturga asosan hali avlod qoldirishga umid bor, shu sababli endi hosil qilgan yangi ko‘saklarni boqish uchun xaxirani ehtiyot qilib saqlaydi. Bu tiriklikning o‘z avlodi uchun qayg‘urishi, ularni sog‘lom, baqarvvat va yashovchan qilishga intilishi kabi tabiiy qonuniyatdir.

Biroq g‘o‘zadagi bu “qayg‘urish” bizning qisqa vegetatsiya sharoitimizda faqat zararga ishlaydi. Birdaniga sovuq tushadi, yangi gul ham, mayda ko‘sak ham pishib yetilishga ulgurmaydi. Demak, biz mavsum davomida suv, o‘g‘it, mehnat va quyosh orqali to‘plagan ozuqani oxirida ko‘sakka o‘tkazmasak, o‘z mehnatimiz natijasini dalada qoldirgan bo‘lamiz.

Mana shu yerda o‘simlikka qarish zarurligi to‘g‘risidagi xabarni berish, ya‘ni aging signali, barg ishlashini to‘xtatib, uni to‘kish, ya‘ni defoliatsiya va hayotiy faollikni yakunlab, poyani quritish, ya‘ni desikatsiyaning haqiqiy ma‘nosi namoyon bo‘ladi. Qarish signalini keraksiz deb bilish, defoliatsiyani oddiy barg to‘kish, desikatsiyani esa oddiy o‘simlik quritish deb qarash katta xato. Qarish jarayoniga start

berilsa, g‘o‘zada tabiiy mavsum yakunlanishi boshlanadi, defoliatsiyada g‘o‘za bargi shu qarish signali bilan hamohang ravishda poyadan uzilib tushadi, bargdagi faollik pasayadi, ko‘sakka quyosh va havo yetib borishi yaxshilanadi, terim yengillashadi. Desikatsiya esa mavsumni qat‘iy yakunlash, o‘simlik to‘qimalarini suvsizlantirish, poya va bargda qolgan hayotiy faollikni to‘xtatib, g‘o‘zaga “endi o‘sish emas, pishish, endi yangi gul emas, mavjud ko‘sak, endi yashillik emas, hosil” degan yakuniy signalni beradi.

Albatta, bu tadbirlarni ko‘r-ko‘rona qilish mumkin emas. Mavsum boshida, ko‘sak shakllanmasdan oldin qilinsa, zarar keltirishi mumkin. Noto‘g‘ri preparat, noto‘g‘ri me‘yor, noto‘g‘ri havo sharoiti yoki noto‘g‘ri texnika bilan qilinsa, samara bermaydi. Shuning uchun biz bu masalaga hadik va ikkilanish bilan emas, ilm bilan, tasodif bilan emas, qat‘iy texnologiya bilan yondashishimiz kerak.

To‘rtta bosqich — bitta
maqsad: hosilni dalada
qoldirmaslik

Paxta yetishtiruvchi eng shimoliy hududlardan biri bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida bu borada aniq tartib va intizom bo‘lishi shart. Har bir bosqich zanjimning halqasidir — biri uzilsa, oxirgi natija pasayadi.

Birinchii bosqichda ekish muddatini kechiktirmaslik kerak. Mart oyining o‘rtalaridan aprel oyining o‘rtalarigacha bo‘lgan qisqa va maqbul muddatda chigit ekishni sifati yakunlash g‘o‘zaga yetarli vegetatsiya davri berishning eng muhim shartidir. Eng yaxshi natija odatda mart oxiri — aprel boshida sifatlilik ekilgan maydonlarda ko‘rinadi. Ekish kechiksa, g‘o‘zaga berilmagan har bir kun keyin kuzda ko‘rinadi: avgustda ko‘sak yetilmaydi, sentyabrda ochildish kechikadi, oktyabrda sovuq xavfi ortadi.

Ikkinchi muhim bosqich avgust boshida g‘o‘zaga qarish yoki pishishi, ya‘ni aging signalini berishdir. Agar dalada gektariga kamida 200 ming atroftida sog‘lom tup shakllangan, har bir tupda o‘rtacha 8-10 ta ko‘sak bog‘langan bo‘lsa, bu allaqachon jiddiy hosil asosi borligini anglatadi. Ana shu paytda, ya‘ni mart oyining oxiri va aprel oyining birinchi yarmida ekilgan maydonlarda 1-avgustgacha, aprel oyining ikkinchi yarmi yoki may oyida ekilgan maydonlarda esa 5-avgustgacha etefon tarkibli preparatlar bilan ishlov berish zarur. Etefon etilen ajratuvchi modda bo‘lib, o‘simlikda pishish, qarish va mavsumni yakunlash signalini beruvchi tabiiy gormon hisoblanadi.

Uchinchi bosqich — bargni to‘kish, ya‘ni defoliatsiya. Etefon tarkibli preparatlar bilan ishlov berilganidan taxminan o‘n kun o‘tgach, yumshoq ta‘sir etuvchi defoliantlar bilan ishlash lozim. Defoliatsiyani ikki marta o‘tkazish va bunda poyadagi barglarni to‘liq tushirishga erishish talab qilinadi: birinchi defoliatsiya poyaning yuqori va o‘rta qismidagi barglarni tushirsa, ikkinchi defoliatsiya pastki barglarni ham to‘liq ajratishga xizmat qiladi. Asosiysi, defoliatsiyani yumshoq va tartibli amalga oshirish bir marta kuchli ta‘siridan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi, chunki maqsad o‘simlikni shokka tushirish emas, uni pishishga boshqaruvli o‘tkazishdir.

To‘rtinchi bosqich — desikatsiya, ya‘ni mavsumni qat‘iy yakunlash. Har yili havo harorati o‘rtacha 22 darajadan tusha boshlaganidan keyin, biroq 1-5-sentabrdan kechiktirmasdan, qattiqroq ta‘sir etuvchi magniy xlorati tarkibli tuzlar yoki dikvat ioni asosidagi desikantlar qo‘llanilishi mumkin. Bu g‘o‘zaga yakuniy signal beradi: mavsum tugadi, endi qolgan kuchingni ko‘sakka ber, dala terimga tayyorlansin. Shu paytdan boshlab poya, shox va ildizda mavsum davomida to‘plangan ozuqa bekorga qolib ketmasdan, tola, chigit va ochilgan ko‘sakka xizmat qilishi kerak.

Bu yerda yana bir bor ta‘kidlash joiz: preparat nomi emas, texnologiya intizomi muhim. Etefon, tidiazuron, diuron, dikvat ioni kabi ta‘sir etuvchi moddalar fermerga yo‘nalish beradi, ammo har bir preparat faqat davlat ro‘yxatidan o‘tgan, qonuniy ruxsat etilgan, yo‘riqnomaga asosidagi me‘yorda, mutaxassis nazoratida, havo sharoiti, harorat, namlik, shamol va terim imkoniyati hisobga olingan holda qo‘llanilishi shart. “Ko‘proq sepsam, tezroq bo‘ladi”, degan qarash ham xato, “umuman sepsamas, hosil og‘ir qoladi”, degan qarash ham xato. Paxtachilikda ilmdan chetga chiqish har ikki holatda ham zarar keltiradi.

G‘o‘zaning “merosi”
dalada qolmasin

O‘zbekiston sharoitida paxta sentyabr oxiri — oktyabr boshida asosiy maydonlarda to‘la pishgan, ochilgan va terimga tayyor holatga kelishi lozim. Noyabni kutib o‘tirish xavfli. Ba‘zi yillar noyabr yoki dekabr iliq kelishi mumkin, ammo agrotekhnologiya tasodifga qurilmaydi. Paxtachilikda “balki kuz yaxshi kelar”, degan umidga emas, “men hosilni o‘z vaqtida pishira olaman”, degan ishonchga tayanish kerak.

Shu o‘rinda yana bir bor aytish lozim: har bir dala bir xil emas. Hududlar iqlimi, tuproq sharoiti, nav xususiyati, suv ta‘minoti, ekish muddati, o‘simlik zichligi va hosil yuki turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har qanday tadbir agronomik baholash bilan, mutaxassis nazoratida amalga oshirilishi shart. Lekin asosiy tamoyil o‘zgarmaydi: O‘zbekistonda paxta pishishini boshqarmasdan, qarish signali, defoliatsiya va desikatsiyani o‘z vaqtida, to‘g‘ri va mas‘uliyat bilan amalga oshirmasdan yuqori hosil olish qiyin. Nav yaxshi bo‘lsa ham, yer unumdor bo‘lsa ham, suv yetarli bo‘lsa ham, o‘g‘it berilsa ham, agar g‘o‘za o‘z vaqtida pishirilmasa, hosilning bir qismi dalada qoladi. Poyada qolgan ozuqa omborga kirmaydi. Mayda ko‘sak va kechki gul fermerga daromad bermaydi. Yashillik ko‘zni quvontiradi, ammo ochildimagan ko‘sak terim savatiga tushmaydi. Shuning uchun biz paxtachilikda fikrlash tarzini o‘zgartirishimiz kerak. Endi O‘zbekiston sharoitida paxtaning qisqa mavsumda pishishini yakunlash texnologik majburiyat bo‘lishi lozim.

Paxtachilikda katta hosil tasodifan paydo bo‘lib qolmaydi, u tizimli barpo etiladi. Ekish muddati, tup va ko‘sak soni, suv, ozuqa, zararkunanda nazorati, o‘sishni kechikash, qarish signali, defoliatsiya, desikatsiya, o‘z vaqtida terim — bular bir-biridan ajralmaydigan zanjiridir. Zanjimning bir halqasi uzilsa, oxirgi natija pasayadi. Buni har bir fermer, har bir agronom, har bir mahalliy rahbar aniq tushumishi kerak. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, O‘zbekiston paxtachiligi dalada turgan ustuvor vazifamiz kamroq yerdan ko‘proq va sifatlirrog‘ hosil olish, fermer mehnatini daromadga aylantirish, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, subsidiyalar, yangi navlar, texnologiyalar va islohotlarning haqiqiy samarasini dalada ko‘rsatishdir. Buning uchun paxtani faqat o‘stirish emas, uni pishirishni ham boshqarishimiz shart.

Maqola boshidagi savolga
javob: xulosa bitta

Oldingi yillardagi kam hosildan chiqqan eng muhim sabog‘imiz shundan iboratki, biz ko‘p yillar davomida paxtani yetarlicha pishirmay turganmiz, g‘o‘zaning poyasi va ildizida qolgan “meros”ni ko‘sakka to‘liq o‘tkazmaganmiz. Terilgan dalalar ham qayta barg chiqarib gullab yotgan. Bugungi eng muhim xulosa esa bunday bo‘lishi kerak: g‘o‘zani texnologik usullar bilan o‘z vaqtida pishirish, uning “merosi”ni dalada qoldirmaslik va mavsum davomida to‘plangan ozuqani mavsum oxirida ko‘sakka, tolaga, chigitga o‘tkazib, fermer daromadiga va mamlakat iqtisodiyotiga xizmat qildirish O‘zbekiston paxtachiligida yuqori hosilning hal qiluvchi shartidir.

Loyiha doirasida yuqori ovoz to'plagan, biroq g'olib bo'lmagan takliflarni deputatlar tashabbusi asosida qo'shimcha ravishda g'olib deb e'lon qilish ham mumkin.

Kun mavzusi

YANGI O'ZBEKISTON

yuz.uz_news

yuz.uz_news

TASHABBUSLI BUDJET

Ikkinchi mavsum uchun takliflar kiritish boshlandi

Boshlanishi 1-betda

Dastlabki bosqich loyiha kiritish jarayoni bo'lib, yurtdoshlarimiz 3-avgustga qadar loyihalarini "Openbudget.uz" portali orqali ilgari surishi mumkin. Portalga kiritilgan loyihalar 4-18-avgust kunlari davomida saralanadi. 19-21-avgust kunlari targ'ibot, 22-31-avgustda esa ovoz berish bosqichi bo'lib o'tadi. Shundan so'ng barcha ovozlar to'planib, yakuniy natijalar bo'yicha g'olib loyihalar shu yilning 1-sentabr — O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi bayrami kuni e'lon qilinadi.

Loyiha ovoz berish bosqichi bo'lib, yakuniy natijalar bo'yicha g'olib loyihalar shu yilning 1-sentabr — O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi bayrami kuni e'lon qilinadi.

Barchada imkoniyat bor

Demak, keyingi bir yarim oy davomida ko'plab yurtdoshlarimiz "Tashabbusli budget"ning faol ishtirokchisiga aylanadi. Loyiha start olishi bilan ko'pchilik allaqachon o'zlari ilgari surayotgan ijtimoiy muammo bo'yicha "Ochiq budget" portali orqali takliflarini qoldirishni boshlab yubordi. Ular orasida avvalgi mavsumlarda g'olib bo'lmagan loyihalar ham, yangi tashabbuslar ham bo'ladi. Asosiysi, barcha ishtirokchilarda g'olib bo'lish imkoniyati mavjud.

Yurtdoshlarimiz loyihadagi ochiqlik va shaffoflikka ishongani uchun ham ishtirokchilar soni har mavsumda ortib boryapti. Unda fuqarolar tomonidan muayyan taklif ilgari surilar ekan, jamoatchilikka ochiq taqdim etiladi. Loyihaga omma tomonidan ovoz beriladi. G'olib loyihalarni esa davlat moliyalashtiradi. Ya'ni odamlar hududidagi ijtimoiy muammolarni loyiha tarzida ilgari surib, o'z ovozlari orqali ularning yechimiga birgalikda erishyapti. Qolaversa, aholi shu tarzda davlat budjeti sarflanishida bevosita ishtirok etmoqda.

Loyiha odamlarni nafaqat bir maqsad atrofida birlashtiryapti, balki ijtimoiy daxldorlik, mas'uliyat hissini ham oshirmoqda. Bugun elimiz mahallasidagi yo'l yomonligi, maktab



“Tashabbusli budget” doirasida ketma-ket ikki mavsumda g'olib bo'lgan mahallalar uchun navbatdagi ikki mavsumda loyiha kiritishni cheklash amaliyoti qo'llanilmoqda. Shunga ko'ra, 2026-yil 2-mavsumda loyiha kiritish imkoniyati cheklanadigan mahallalar ro'yxati shakllantirilib, tegishli platformaga ularning ro'yxati joylashtirildi.

ta'mirlabliligi, istirohat bog'i yo'qligiga befarq emas. Aksincha, eng kichik muammoga ham e'tibor qaratib, "Tashabbusli budget"ga kirityapti. Chunki yetarlicha ovoz to'plansa, istalgan loyiha g'olib bo'lishi mumkin. Ba'zan esa kam ovoz bilan natijaga erisha bo'ladi. Masalan, o'tgan galgi mavsumda eng kam — 58 ta ovoz bilan Mo'ynoq tumanidan kiritilgan,

ko'cha chiroqlarini o'rnatish bo'yicha tashabbus g'oliblar qatoridan joy olgandi.

Asosiysi, har bir g'olib loyiha qisqa vaqtlarda moliyalashtirilib, hayotga faol tatbiq etilmoqda. Shu kungacha xayrli loyiha ortidan hududlardagi minglab ijtimoiy masalalar o'z yechimini topib, qanchadan qancha yo'llar asfaltlandi, ijtimoiy soha obyektlari qayta ta'mirlandi, joylarga



ichimlik suv, elektr toki yetib bordi. Ayni paytda bu boradagi ishlar hududlar bo'yab faol davom etmoqda.

Avvalgi mavsumda g'olib bo'lgan Jizzax viloyati Mirishkor tumanidagi 10-umumta'lim maktabi hududida sun'iy qoplamali zamonaviy futbol maydoni foydalanishga topshirildi. Loyihani amalga oshirish uchun 1,3 milliard so'm ajratilgan. Belgilangan muddatda o'lchami 25x42 metr bo'lgan yangi futbol maydoni barpo etildi. Endi unda nafaqat maktab o'quvchilari, balki tuman yoshlari bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazib, sevimli sport turlari bilan shug'ullanishi mumkin.

Toshkent viloyati Ohangaron shahrida esa zamonaviy Yoshlar markazi ochildi. Yangi markaz bunyod etilishi uchun hudud ahli "Tashabbusli budget"ning o'tgan galgi mavsumida faollik ko'rsatib, loyiha uchun g'olib bo'lishi va tegishli mablag' ajratilishiga erishgandi. Oradan qisqa vaqt o'tib esa birgalikda markazning tantanali ochilishini nishonlashdi.

Markazda zamonaviy kutubxona, AT savodxonlik va raqamli texnologiyalar bo'yicha o'quv xonalari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv hamda turli loyihalarni o'tkazish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Bu yerda yoshlar bilim olish bilan birga, bo'sh vaqtni

mazmunli o'tkazishi mumkin. Endi Ohangaron shahrida ham hudud yoshlarini birlashtiradigan zamonaviy maskan bor.

"Tashabbusli budget"ning boshqa g'olib loyihalarida ham ishlar qizg'in ketyapti. Masalan, Andijon viloyati Paxtaobod tumani Tinchlik mahallasi ichki ko'chalarida ayni paytda 4 kilometr asfalt qoplamasi yotqizilmoqda. Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani ixtisoslashtirilgan maktabida esa mukammal ta'mirlash ishlari avjida. Loyihani amalga oshirish uchun 1,5 milliard so'm ajratilgan. Buning hisobidan muassasaning ichki va tashqi devorlarini ta'mirlash, sinfxonalari eshiklari, tom shiferi qoplamasini yangilash, sport zalining isitish batareyalari sonini ko'paytirish, shuningdek, yo'laklarni ta'mirlash ishlari bajarilayapti.

Jarayonlar doimiy nazoratda. Chunki "Tashabbusli budget"da loyihalar shunchaki g'olib topilib, mablag'lar maqsadsiz berilmaydi. Har bir loyiha o'z vaqtida ro'yogga chiqishi, mablag' to'g'ri sarflanishi tegishli davlat idoralari, qolaversa, loyiha tashabbuskorlari tomonidan nazorat qilib boriladi.

Deputatlar bir yoki bir necha loyiha tanlashi mumkin

"Tashabbusli budget"ning tartib va me'yorlari, qoidalari bor. O'tgan galgi mavsumda esa ular qatoriga bir necha yangisi qo'shildi. Masalan, taklif kiritish bosqichida loyiha turi va belgilangan qiymat chegaralarini inobatga olish muhim. Tartibga ko'ra, qurilish va ta'mirlash loyihalar 1 milliard 648 million so'mgacha, jihozlash loyihalar 824 million so'mgacha qiymatdan oshmasligi kerak.

O'tgan mavsumdan boshlangan yangiliklardan yana biri loyihalarni sheriklik asosida birgalikda moliyalashtirish imkoniyati va bunday loyihalarning ovoz to'plamasidan turib g'olib bo'lishi bilan bog'liq. Tashabbuskorlar 2-mavsum doirasida sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni ham 3-avgustga qadar taqdim etishi mumkin.

— Bunda aholi tomonidan loyiha qiymatining 50 foiz qismi moliyalashtirilgan taqdirda loyihalar avtomatik ravishda g'olib deb topiladi va qolgan qismi davlat tomonidan moliyalashtiriladi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'lim boshlig'i Azimjon Hasanov. — Tartibga ko'ra, har bir mahallaga bir mavsumda faqat bitta loyihani sheriklik asosida amalga oshirishga ruxsat beriladi. Loyiha qiymatining 50 foiziga teng mablag'ni to'play olmagani sheriklik loyihalarini chetlashtirilmaydi, ular an'anaviy ovoz berish bosqichiga o'tkaziladi. Ammo sheriklik loyihalarini faqat jamoaviy foydalanishga mo'ljallangan infratuzilma obyektlariga taalluqli bo'lishi kerak. Budget tashkilotlariga oid loyihalarni sheriklik asosida moliyalashtirishga esa ruxsat berilmaydi. Loyihalarni bu tarzda kiritish mutlaqo ixtiyoriy bo'lib, ular uchun ovoz to'plash talab etilmasligi bilan boshqa tashabbuslardan ajralib turadi.

Jarayonlar shaffofligini ta'minlash, bir mahalla yoki hudud har gal g'olib bo'lishining oldini olish maqsadida esa yana bir mexanizm joriy etilgan. Ya'ni "Tashabbusli budget" doirasida ketma-ket ikki mavsumda g'olib bo'lgan mahallalar uchun navbatdagi ikki mavsumda loyiha kiritishni cheklash amaliyoti qo'llanilmoqda. Shunga ko'ra, 2026-yil 2-mavsumda loyiha kiritish imkoniyati cheklanadigan mahallalar ro'yxati shakllantirilib, tegishli platformaga ularning ro'yxati joylashtirildi. Biroq tanaffusga tushgan mahallalar ham sheriklik asosida loyihalarni ilgari surish imkoniyatiga ega.

Loyiha doirasida yuqori ovoz to'plagan, biroq g'olib bo'lmagan takliflarni deputatlar tashabbusi asosida qo'shimcha ravishda g'olib deb e'lon qilish ham mumkin. Avvalgi mavsumda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlariga tegishli okrugdagi g'olib bo'la olmagani 1 tadan loyihani qo'shimcha ravishda g'olib deb e'lon qilish imkoniyati berilgandi. Bu gal esa ushbu amaliyot yanada takomillashtirildi.

Gap shundaki, davlatimiz rahbarining joriy yil 29-iyundagi tegishli qarori bilan "Tashabbusli budget"ning 2026-yil 2-mavsumidan boshlab deputatlarga ajratilgan mablag' doirasida bir yoki bir necha loyihani tanlash imkoniyati beriladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra, ushbu jarayonda vakolati muddatidan oldin tugatilgan deputatlar o'rniiga vaqtinchalik deputatlarni birlashtirish amaliyoti ham yo'lga qo'yildi.

Bularning bari "Tashabbusli budget" doirasida ajratilgan mablag'lardan yanada samarali foydalanish, mahalliy muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalar qamrovini kengaytirish hamda g'olib loyihalar sonini oshirishga xizmat qiladi. Zero, ushbu harakatlar orqali umummilliy loyihani xalqqa yanada yaqinlashtirish, kengroq ommalashtirish, ijtimoiy muammolarni yechimida fuqarolarning tashabbusi va ishtirokini oshirish kabi xayrli maqsadlar ko'zlangan.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



2026-yil — Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

Mahalla — o'ziga xos noyob institut. Ushbu tuzilma yaqin-yaqingacha o'zini o'zi boshqarishi nuqtayi nazaridan demokratiyaning yuksak modeli sifatida e'tirof etilardi. Yangi O'zbekiston sharoitida mahallaning mohiyati, jamiyat hayotida tutgan o'rni tubdan o'zgardi. U endi faqat o'zini o'zi boshqaruvchi organ emas, mamlakatimizda kechayotgan shiddatli islohotlar natijadorligini ta'minlovchi tizimga aylandi. Zero, aynan mahallada davlat siyosati insonlarning kundalik hayoti bilan uyg'unlashib, ko'plab ijtimoiy masalalar idoralarda emas, balki joylarda, oilalar davrasida hal etiladi.

Shu bois, fuqarolar yig'inlari faoliyatini rivojlantirish va imkoniyatini kengaytirish masalasi doimo Prezidentimiz e'tiborida. Chunki mahalla tizimi samaradorligi davlat qarorlarining har bir insonga qanchalik tez, manzilli va natijador yetib borishini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda mahallaning jamiyat hayotidagi o'rni hamda ta'sirini oshirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yil boshida infratuzilma, aholi turmush darajasi, biznes faollik va moliyaviy imkoniyatlari cheklangan 37 ta "og'ir" tuman hamda 915 ta "og'ir" mahalla bilan ishlash bo'yicha yangi tizim yaratilgan edi. Buning uchun respublika budjetidan "og'ir" tuman va mahallalarda infratuzilmalarni yaxshilash uchun 12 trillion so'm yo'naltirildi.

Bunga qo'shimcha ravishda har bir shunday tumanga 50 milliard so'mdan, har bir mahallaga 2 milliard so'mdan mablag' berildi. Viloyat hokimliklari tomonidan ham 37 ta tumanning har biriga 10 milliard so'mdan, 915 ta mahallaning har biriga esa 1 milliard so'mdan mablag' ajratildi. Natijada tuman hokimliklari va mahalliy kengashlar "og'ir" tuman va mahallalar uchun qo'shimcha yana 4 trillion so'm mablag'ga ega bo'ldi.

Bugungi modelning o'ziga xos jihati shundaki, bu yerda mablag' aniq muammolarni hal etish va ahvol eng murakkab deb topilgan muayyan hududlarni rivojlantirish uchun yo'naltiriladi. Bu esa mamlakatning eng rivojlangan va nisbatan ortda qolayotgan hududlari o'rtasidagi tafovutni qisqartirishga qaratilgan samarali mexanizmi shakllantirilmog'da. Muhimi, mazkur mexanizm har bir hududning o'ziga xos ehtiyoji va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, resurslarni to'liq safarbar etish hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz huzurida mahallalar faoliyatini raqamlashtirish va Mahallani rivojlantirish milliy institutini tashkil etish yuzasidan o'tkazilgan taqdimotda ham tizim faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan qator muhim takliflar ilgari surildi.

Bugun mahalla bandlikni ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, jamoat xavfsizligini mustahkamlash va yoshlar tarbiyasi kabi muhim masalalar tutashadigan yagona maskanga aylangan. Shu bois, mahalla tizimini yanada rivojlantirish faqat ma'muriy qarorlar bilan cheklanib qolmay, puxta ilmiy yondashuv, zamonaviy metodika va chuqur tahliliy asoslarni ham talab etadi.

Shunday ekan, mahalla faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish bugunning talabi. O'rganishlarga ko'ra, shu vaqtgacha mamlakatimizda tadqiq etilgan 20 mingga



Mamlakat taraqqiyotining STRATEGIK RESURSI

yaqin ilmiy ishing atigi 10 tasida mahallaga aloqador ayrim masalalar o'rganilgan. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbariga Mahallani



rivojlantirish milliy institutini tashkil etish taklifi bildirildi.

Yangi institut mahalla tizimidagi islohotlarni ilmiy tahlil qilish, ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish, "yetitilik" faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Ushbu tizim orqali har yili 21 ming nafar mahalla tizimi va "yetitilik" a'zosiining malakasi oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan institut tashkil etilayotganining o'ziyoq davlat mahallani nafaqat ijtimoiy tuzilma, balki mamlakat taraqqiyotining strategik resursi sifatida ko'rayotganini namoyon etadi.

Institut mahalla tizimi faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish, samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va islohotlarning natijadorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

— Keyingi yillarda mahalla tizimida tub islohotlar boshlandi, — deydi O'zbekiston mahallalarini uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev. — Joriy yil mamlakatimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilingani munosabati

bilan aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, mahallalar infratuzilmasi va ijtimoiy muhitini yaxshilash bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yil yakuniga qadar bir million kishini doimiy ish bilan ta'minlash, 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish, kambag'allikdan xoli mahallalar sonini 2,5 barobar oshirib, 3500 taga yetkazish, ishsizlik va kambag'allik darajasini 4,5 foizgacha tushirish maqsad qilingan.

Albatta, bunday raqamlar ortida hududlarni rivojlantirishga qaratilgan mutlaqo yangicha yondashuv mujassam. Agar ilgari bandlik va aholi farovonligi ko'rsatkichlari asosan tuman, viloyatlar kesimida baholangan bo'lsa, endi e'tibor insonga eng yaqin institut — mahallaga qaratilmoqda.

Aslida, bu o'rtaicha ijtimoiy siyosatdan manzilli boshqaruv modeliga o'tishni anglatadi. Bunday islohotlar samarasi ushuni statistik ko'rsatkichlar asosida emas, balki har bir oila hayotida yuz berayotgan aniq va ijobiy o'zgarishlar orqali baholalanadi.

Taqdimotda mahallalarni qo'llab-quvvatlash uchun Mahallalar faoliyatini rag'batlantirish jamg'armasiga yana 200 milliard so'm ajratilgani ma'lum qilindi. Shuningdek, mahallalar uchun 300 milliard so'mdan ziyod qo'shimcha doimiy daromad manbalari yaratilmoqda.

Ushbu mablag', birinchi navbatda, ichki yo'llarni ta'mirlash, piyodalar yo'lakchalarini yotqizish, bolalar va sport maydonlarini qurish, mahalla bog'larini barpo etish, ehtiyojmand oilalar bandligini ta'minlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, jinoyat yo'lga adashib kirib qolgan 245 fuqaroni kasb-hunarga o'qitish, ijtimoiy hayotga qaytarish bo'yicha alohida ishlar bajariladi.

Mahallalar faoliyatini raqamlashtirish masalasi ham muhim. "Mahalla yetitiligi" tomonidan uyuma-uy o'rganishlar davomida 1 million 365 ming kishining muammosi aniqlangan.

Ularni tezkor hal qilish uchun 35 ta vazirlik va idoraning axborot tizimlari "Raqamli mahalla" platformasiga ulanadi. Platforma orqali mahalladagi dolzarb masalalarni aniqlash, murojaatlarni tizimli tahlil qilish va tegishli yechimlarni tezkor belgilash imkoni yaratiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali har bir mahalladagi eng dolzarb muammolarni oldindan aniqlab, bartaraf etish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yiladi.

Mahalla faoliyatini raqamlashtirishning ahamiyati yangi texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanib qolmaydi. Turli idora, tashkilotlar ma'lumotlarini birlashtirgan holda fuqarolarning aniq muammolarni hal etishga xizmat qiladigan yagona axborot makoni shakllantirilmoqda.

Mazkur jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish davlat boshqaruvining samaradorligini yanada oshirishda qo'l keladi. Kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hisobiga har bir mahalladagi eng dolzarb muammolarni oldindan aniqlab, bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish imkonini beruvchi yangi tizim ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, har bir mahallaning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, banklar bilan birgalikda aholining biznes tashabbuslari va investitsiya loyihalarini portfli shakllantiriladi. Bu mahalladagi imkoniyatlarni ish o'rni va daromad manbasiga aylantirishga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

“YASHIL” TEXNIKUMLAR

TASHKIL ETISH DAVR TALABI



Nuqtayi nazar

So‘nggi yillarda mamlakatimiz ekologik siyosatida globallashuv jarayonlarga hamohang ravishda yangicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda birinchi galda, sohadagi boshqaruv tizimining huquqiy asoslari tubdan takomillashtirildi, vazirlik maqomidagi maxsus vakolatli davlat organiga milliy qo‘mita maqomi berildi hamda Vazirlar Mahkamasi tizimidan chiqarilib Prezident Administratsiyasiga o‘tkazildi. Bu ekologik masalalar to‘g‘ridan to‘g‘ri davlatimiz rahbari tomonidan shaxsan nazoratga olinganini anglatadi va muammolarni tezkor hal etish imkoniyatini beradi.



G‘ayrat MUHAMEDOV,
“Davlat ekologik ekspertizasi
markazi” davlat muassasasi
bosh direktori,
texnika fanlari doktori

Shuningdek, sohada atrof-muhit komponentlari muhofazasi va ulardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan “Chiqindidan xoli hudud”, “Toza havo”, “Yashil makon”, “Eko-madaniyat”, “Bio-meros” kabi loyihalar ijrosi Prezidentimiz farmon va qarorlari bilan aniq belgilab berilayotgani milliy ekologik siyosatimizga xalqaro amaliyotlarda o‘xshashi yo‘q mazmun va mohiyat kasb etmoqda.

Xususan, Prezidentimizning 2026-yil 25-martdagi “Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta‘lim, ilm-fan va targ‘ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida 2026-2027-yillar davomida respublikamizning har bir hududida o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlaydigan 14 ta “yashil” texnikum faoliyatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Hujjatda 2030-yilgacha mazkur texnikumlarda 10 ming nafar o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash uchun ekologik ta‘lim va ilmiy yanada rivojlantirish vazifalari belgilangan.

Mazkur o‘rta bo‘g‘in ta‘lim muassasalari Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University) hurrida faoliyat olib borishi nazarda tutilgan. Tashabbus, birinchi navbatda, professional ta‘lim tizimini takomillashtirish, “yashil iqtisodiyot” tarmoqlarida o‘rta bo‘g‘in malakali kadrlar yetishmovchiligini to‘ldirish, shuningdek, dual ta‘limni joriy etish orqali yosh mutaxassislar va ish beruvchilar o‘rtasida

to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan.

Ta‘lim maskanida tegishli dasturlar xalqaro standartlar asosida ishlab chiqiladi. O‘qituvchilar malakasini muntazam oshirish, ta‘lim sifatini nazorat qilish hamda o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish avtomatlashtirilgan tizim orqali bajariladi.

“Yashil” texnikumlar binolarini Green University binosi andozasi asosida to‘liq qayta ta‘mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda o‘quvchilar uchun Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi hamda Fanlar akademiyasi tizimiga kiruvchi tashkilotlarda o‘rmon xo‘jaliklari, gidrometeorologiya stansiyalari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, chiqindi poligonlari, botanika va dendrologiya bog‘lari, hayvonot bog‘lari, Botanika va Zoologiya institutlarining amaliyot uchastkalari tashkil etiladi.

“Yashil” texnikumlar mamlakatimizda aholi orasida ekologik odatlarni shakllantirish, ta‘lim muassasalari faoliyatining barcha bosqichlarini xalqaro standartlar hamda ekologik me‘yorlar asosida qayta yo‘lga qo‘yish, shuningdek, “Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni dual ta‘lim shaklida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirib borish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, texnikumlarda ekostipendiya ta‘sis etiladi. Har yili 10 nafargacha iqtidorli o‘quvchi

mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan stipendiya oladi. “Yashil” texnikumlarni muvaffaqiyatli bitiruvchilarga Green University tomonidan belgilangan ballar o‘rtacha qiymatidan kelib chiqib, bakalavriatning ikkinchi bosqichidan o‘qishni davom ettirishga ruxsat beriladi.

Mazkur ekologik ta‘lim siyosatini birgina Farg‘ona viloyati “yashil” texnikumi misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, texnikumga ekologiya sohasida 13 ta yo‘nalishdagi mutaxassislik bo‘yicha 9- va 11-sinf bitiruvchilari uchun jami 810 ta kvota belgilangan. “Yashil” texnikumda o‘quvchilar uchun ekolog-laborant, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ustasi, dendrologiya va landshaft agronomiyasi, intensiv bog‘lar laboranti, o‘simliklarni himoya qilish laboranti, baliqchilik va akvakultura ishchisi, buxgalter-auditor mutaxassisliklari bo‘yicha chuqur bilim hamda ko‘nikmaga ega bo‘ladi.

Ta‘kidlash joizki, bugungi globalizatsiya davrida mamlakatimizda energetika sohasi jadal rivojlanishda davom etmoqda. Shuning uchun energetika, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energetika sohasida malakali milliy mutaxassislarni tayyorlash alohida dolzarb ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda 9-sinf bitiruvchilari uchun taklif etilayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari mutaxassisligi bugungi kunda minglab gektar maydonda qurilayotgan quyosh stansiyalarida, shuningdek, gidroelektrostansiyalar hamda biogaz qurilmalarida ishlash uchun katta imkoniyatdir. Hozir “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunga asosan viloyatda faoliyat olib borayotgan 300 ga yaqin yirik sanoat korxonalarining ekologik nazorat xizmati uchun ekolog-laborant, 30 dan ortiq sanitariya-tozalash va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha 40 dan oshiq korxonalarda yuzlab ekolog-mutaxassislarga ehtiyoj bor.

Dendrologiya va landshaft agronomiyasi, intensiv bog‘lar laboranti, o‘simliklarni himoya qilish laboranti kabi yo‘nalishlarda tahsil olgan bitiruvchilar texnikum yonida barpo etiladigan dendrologiya va botanika bog‘larida, viloyat davlat o‘rmon xo‘jaliklarida, tuman va shaharlarning obodonlashtirish bo‘limlari hamda sanoat korxonalarida ishlaydi.

Yaqinda davlatimiz rahbariga cho‘llanishga qarshi kurashish va cho‘l iqtisodiyotini rivojlantirish, shuningdek, “yashil shahar” tamoyillarini joriy etish yuzasidan takliflar taqdimot qilindi. Unga ko‘ra, 2026-2030-yillarda 1,27 million gektarda o‘rmon barpo etiladi. Qayta ishlash tarmog‘i rivojlantiriladi. “Yashil” texnikumi tamomlagan o‘quvchilar esa mazkur rejalarini hayotga tatbiq etadilar.

Qo‘shstepa tumanining asosiy qismi Zo‘yovon cho‘li hududida joylashgan. Bu esa mutasaddilar zimmasiga cho‘llanishning oldini olish, yer, suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq va o‘rmon xo‘jaliklarini ilmiy asosda tashkil etish kabi muhim vazifalarni yuklaydi. Joriy etilayotgan “yashil” texnikum esa Qo‘shstepa tumanida “yashil iqtisodiyot” sohalarini uchun xalqaro talablarga javob beradigan malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish imkonini beradi.

Farg‘ona viloyati “yashil” texnikumi hamda “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DM o‘rtasida tuzilgan hamkorlik memorandumini yangi tashkil etilgan ta‘lim muassasasining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish hamda yo‘nalish bo‘yicha malakali kadrlar bilan ta‘minlash imkoniyatlarini yaratadi.

Ekologik ta‘lim tizimida bunday kompleks yondashuv bitiruvchilarning bugungi mehnat bozori talablari va istiqboladi ehtiyojlariga muvofiq shakllanishini ta‘minlaydi. Tashkil etilayotgan “yashil” texnikumlar O‘zbekistonda ekologik ta‘lim tizimini faollashtiradi. Malakali kadrlar zaxirasi hamda barqaror atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kadrlar uchun mustahkam zamin yaratadi.

Iqtidorli yoshlar

Davlatimiz rahbari yoshlar kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan muloqot doirasida tashkil etilgan ko‘rgazmada yurtimizning faol va izlanuvchan yoshlari bilan uchrashib, ularning mahalla hayoti, ekologiya, startaplar, muhandislik va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish kabi sohalaridagi loyihalari bilan tanishgan edi. Muhandislik va innovatsiya sohasidagi taqdimotlar, sun’iy intellekt hamda robototexnika yo‘nalishidagi ishlanmalar uchrashuvning asosiy mavzularidan biri bo‘ldi.

RAG‘BAT BOR JOYDA YUKSALISH BO‘LADI

Nukus davlat texnika universiteti talabasi, Nukus yoshlar texnoparki rezidenti Ayzada Asanovanning “Yangi avlod avtomobillari” yo‘nalishidagi muvaffaqiyatli loyihasi yuqori baholandi. Ushbu innovatsion ishlanmani turli tarmoqlarda joriy etish zarurligini qayd etdi.

Prezidentimiz yoshlar bilan uchrashuvda iqtidorli qizlar uchun “Muhandis qizlar” stipendiyasi ta‘sis etilishini aytdi. Bu kelajakda raqobatbardosh, tashabbuskor va malakali ayol muhandislar avlodini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Zero, zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar, sanoat, energetika, qurilish va axborot-kommunikatsiya sohalarini uchun yetuk muhandislarga bo‘lgan

2025-yildan boshlab aprel oyi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan “Muhandislik oyligi” deb e‘lon qilinib, butun mamlakat bo‘ylab 5 mingdan ortiq iqtidorli yoshni birlashtiruvchi keng qamrovli tadbirlar tashkil etilayotgani yosh muhandis kadrlar tayyorlashga qaratilayotgan e‘tiborga yorqin misoldir. Bunday tadbirlarda minglab yosh muhandis o‘zining sun’iy intellekt, robototexnika, dron, kibernetika kabi yo‘nalishlarda innovatsion yechimlarini taqdim etib kelayotir.

Tibbiyot muhandisligi yo‘nalishida o‘tkazilgan “AI Health” hakatoni sohadagi ko‘plab muammolarga kreativ yechim topish maqsadini o‘zida mujassam etgan. Hakaton sun’iy intellekt texnologiyalari asosida sog‘liqni saqlash sohasida innovatsion



“Nukus davlat texnika universiteti talabasi, Nukus yoshlar texnoparki rezidenti Ayzada Asanovanning “Yangi avlod avtomobillari” yo‘nalishidagi muvaffaqiyatli loyihasi yuqori baholandi. Ushbu innovatsion ishlanmani turli tarmoqlarda joriy etish zarurligini qayd etdi.

talab ortib borayotgan bir paytda qizlarning ushbu sohalaridagi ishtiroki mamlakat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2024-yilning 20-iyun kuni Prezidentimiz raisligida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgandi. Unda ilm-fan va sanoat integratsiyasini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda yangi avlod yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Bo‘ljak muhandislarni an‘anaviy nazariy tayyorgarlik doirasidan chiqarib, aniq texnologik yechimlar, amaliy taqdiqotlar va sanoat ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lash muhandislik ta‘limini mazmunan qayta tashkil etishni taqozo etadi. Faqat auditoriya bilan cheklanmay, laboratoriya taqdiqotlari, sanoat korxonalari bilan qo‘shma loyihalar, startap tashabbuslar va innovatsion ishlanmalar orqali yetuk muhandis kadrlarni shakllantirish mumkin. Oliy ta‘limda eng muhim institutsional yangiliklardan biri deya atalayotgan muhandislik maktablari ana shu maqsadni o‘zida mujassam etgan. Bugun yoshlarning sohada erishayotgan yutuqlari hududlarda ham muhandislik maktablari jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda oliygohlarda “yashil” energetika, mashinasozlik, sun’iy intellekt, transport, qurilish va sanoat kabi strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlarda 14 ta muhandislik maktabi tashkil etilgan. Ushbu maktablarda muhandis kadrlarni tayyorlash jarayoni an‘anaviy bilim berish doirasidan chiqib, amaliy muhandislik muammolariga innovatsion yechimlar taqdim qilish bosqichiga o‘tmqda. Tahliiliy fikrlaydigan, muammolarga nooddiy yechim beradigan, zamon bilan hamnafas bo‘ljak muhandislar shu maktablarda kamol topmoqda.

yechimlarni ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni startap faoliyatiga jalb etish, axborot texnologiyalari va tibbiyot integratsiyasini rivojlantirish maqsad qilingan.

— Aksariyat hollarda bemorlarda davolanish jarayoni oxiriga yetkazilmaydi, — deydi yosh ixtirochi Bekzod Toshqulov. — O‘zini bir oz yaxshi his qilgan bemor zarur dorini qabul qilishni muddatidan oldin to‘xtatadi. Bu esa kasallikning oxirigacha tuzalmay surunkali holatga o‘tishini va kasalxonalariga ortiqcha yuklamani keltirib chiqaradi. Loyihamizda turli qiziqarli o‘yinlar orqali dorini o‘z vaqtini qabul qilishga o‘rgatish ko‘zda tutilgan. Bemorning dori ichish jarayoni sun’iy intellekt yordamida nazorat qilinadi.

Samarqand davlat texnika universiteti taqdiqotchisi Sarvara Saidmurodova tomonidan yaratilgan ishlanma ham e‘tiborga molik. Kam suv talab qiladigan sement asosida vernikulitli yengil betonlar ishlab chiqarish texnologiyasi zamonaviy qurilish materiallarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiya yordamida energiya samarador, yengil va mustahkam, yuqori issiqlik izolyatsiyasiga ega, olvoga chidamli hamda zilzilabardosh materiallar ishlab chiqarish imkoniyati kengayadi. Natijada qurilish sohasida sifatli va xavfsiz materiallar turi ko‘payadi.

Bunday izlanishlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Yoshlar tomonidan taqdim etilayotgan texnologik loyihalar, yechimlar mamlakatimizda muhandislik salohiyati tobora yuksalib borayotganiga dalil bo‘la oladi. Bu esa yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish, ularni qo‘llab-quvvatlash va kelajak texnologiyalarini yaratishga berilayotgan e‘tibor mahsulidir.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yangicha yondashuvlar

Mamlakatning eng katta boyligi inson kapitalidir. Ushbu sarmoyaning qiymati yuqori bo‘lishida muayyan shartlar bor. Masalan, yuksak bilim va yuqori darajadagi kasbiy ko‘nikma inson kapitalining asosiy ustundir. Ayni sabab tufayli xalq salomatligi mamlakat taraqqiyotida juda muhim o‘rin tutadi. Shuning sog‘liq jamiyatda ko‘tarinki kayfiyatini, yaratuvchanlik ishtiyoqini kuchaytiradi. Shu bois, keyingi yillarda xalqimiz, ayniqsa, bolalar salomatligini asrash borasida katta islohotlar kechmoqda.

Xususan, yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktik emlash tadbirlari muntazam ravishda keng ko‘lam kasb etdi. Qoraqalpog‘istonda ham bunday ishlar samaradorligi oshirilgach, bir qancha kasalliklar chekindi. Jumladan, maqsadli va tizimli tibbiy profilaktika tufayli shol, bo‘g‘ma, qoqshol kabi kasalliklarni butunlay yo‘qotishga erishildi. Lekin shu natija bilan ishlar to‘xtab qolgani yo‘q. Zero, tibbiyot rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, ayrim turdagi yuqumli kasalliklar hanzuz jamiyat salomatligiga, xususan, bolalar sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishi mumkin. Shunday xastaliklardan biri A virusli gepatit. Mutaxassislar fikricha, virusli gepatitga qarshi kurashishning eng samarali va ishonchli



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI
SKANER QILING!

usullaridan biri profilaktik emlashdir. Biroq ushbu turdagi vaktsinatsiya faqatgina epidemik o‘zida Qoraqalpog‘istonda yashovchi bolalar uchun tegishli mablag‘ ajratilib, 47 ming 220 doza vaktsina sotib olindi. Yosh ko‘rsatkichi bo‘yicha kasallanish darajasi yuqori bolalarda A gepatitiga qarshi bepul emlash o‘tkazildi.

Natijada aholining A virusli gepatit bilan

QORAQALPOG‘ISTONDA SALOMATLIK AKSIYASI

Har bir inson, barcha bolalar e‘tiborda

kasallanish ko‘rsatkichi 2024-yildagiga nisbatan 1,6 barobar, maqsadli guruh bolalari o‘rtasidagi kasallanish holatlari 3,7 barobar kamaydi.

Joriy yilda ham Qoraqalpog‘istonga byudjetdan 8 milliard so‘m ajratilib, maxsus vaktsinalar olib kelindi. Buning hisobidan maqsadli guruhdagi 45 mingdan ortiq bolani A virusli gepatitga qarshi emlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ushbu muhim preparatlar, birinchi navbatda, 6 yoshdagi bolalarni hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini bepul emlash uchun yo‘naltirilmoqda. Tibbiy-profilaktika tadbirlari hududlar bo‘ylab izchil o‘tkazilib, xarid qilingan vaktsinalar Amudaryo tumaniga ham yetib keldi.

— Vaktsinalar maxsus tibbiy transport vositalari yordamida tumanidagi mavjud 14 ta emlash punktiga xavfsiz tarzda yetkazib berildi. Ayni paytda joylardagi muassasalarda 2019-yilda tug‘ilgan bolalarni va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini rejali tarzda emlash boshlab yuborildi, — deydi Amudaryo tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi shifokori Mirzabek Omonqulov. —

Mamlakatimizdagi bunday keng qamrovli va tezkor chora-tadbirlar nafaqat epidemiologik vaziyatni barqaror saqlashga, balki ertamiz egalar bo‘lgan bolalarning sog‘lom voyaga yetishiga ham mustahkam poydevor yaratayapti.

Yurak-qon tomir kasalliklari butun dunyoda ko‘p uchraydigan va inson hayotiga jiddiy xavf tug‘diradigan xastalikdir. Shu bois, yurtimizda ushbu kasallikka qarshi keng ko‘lamli profilaktika o‘tkazilyapti. Ana shunday xayrli va muhim tadbirlardan biri Amudaryo tumanida tashkil etildi.

— Poytaxtdan, xususan, Milliy tibbiyot markazidan Amudaryoga yuqori malakali bir guruh mutaxassislar keldi. Ular zamonaviy uskunalar yordamida mahalliy aholini chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazdi. Ko‘rikda asosiy e‘tibor xalq orasida kardioskining deb ataluvchi o‘ta muhim jarayon, ya‘ni koronarografiya amaliyotini bajarishga qaratildi, — deydi Amudaryo tumani tibbiyot birlashmasi boshlig‘i o‘rinbosari Zokir O‘rozbayev. — Mutaxassislar maxsus mobil angiograf apparati yordamida yurakning koronar tomirlarini aniq va tezkor tekshirdi.

Tibbiyotda ushbu amaliyot infarktgacha bo‘lgan holatlarni erta aniqlash va o‘limga

olib keluvchi og‘ir yurak xurujlarining oldini olishda eng samarali usul hisoblanadi. Milliy tibbiyot markazi shifokorlarning chekka hududlarga tashrifi esa bunday murakkab tekshiruvlarni markazga bormasdan, bemorlarning bevosita yashash joyida o‘tkazish imkonini bermqda.

Mutaxassislar ta‘kidicha, koronarografiya yurakni oziqlantiruvchi qon tomirlari holatini maxsus kontrast modda va rentgen apparati yordamida tekshirishning eng ishonchli usulidir.

— Mazkur chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rik va murakkab diagnostika amaliyotlari aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun mutlaqo bepul. Jarayonda, birinchi navbatda, barcha nafaqadagi fuqarolar, 1- va 2-guruh nogironligi bor shaxslar, ijtimoiy reyestrda kambag‘al oila sifatida ro‘yxatga olinganlar qamrab olindi, — deydi Zokir O‘rozbayev. — Ulardan tashqari, afg‘on urushi hamda Chernobil halokati qatnashchilari ham ushbu bepul kardioskining dasturiga kiritilgan bo‘lib, zarurat tug‘ilganda, ularga tibbiy sug‘urta doirasida bepul stent qo‘yish amaliyoti ham bajarilishi ko‘zda tutilgan. Bunday e‘tibor va g‘amxo‘rlik xalqimiz quvonchiga sabab bo‘lyapti.

Inson salomatligi bebaho boylik. O‘z vaqtida o‘tkazilgan to‘g‘ri va aniq tekshiruvlar ko‘plab og‘ir asoratlarning oldini olishga xizmat qiladi. Amudaryo tumanida tashkil etilgan bu galgi tibbiy aksiya doirasida yurtodshlarimiz sog‘lig‘iga e‘tiborli bo‘lishga chaqirildi. Ayni paytda bu xalq salomatligi yo‘lida yaratilayotgan ulkan imkoniyatlarning yana bir amaliy ifodasi bo‘ldi.

Minajatin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



2026-yil 16-iyul, 143-son

6

Nazm gulshani

METALL VA gul

Prezidentimiz farmoniga binoan yurtimiz yoshlari o'rtasida o'zining tirishqoqligi, bilim va malakasi, mehnatsevarlik va vatanparvarlik fazilatlarini bilan o'rnak bo'lib, mamlakatimizda metallurgiya sohasini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sanoatda xotin-qizlar ishtirokini kengaytirishga munosib hissa qo'shib kelayotgani, shuningdek, kitobxonlik umummilliy harakatida faol ishtirok etayotgani, adabiyot sohasidagi ijod namunalari bilan jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, ezigulik va insoniylikni targ'ib qilishda alohida jonbozlik ko'rsatayotgani uchun "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining quyuv-prokatlash majmuasi mutaxassisi Dilnoza Primqulova Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Ushbu she'r Dilnoza Primqulovaga bag'ishlanadi.



Rustam MUSURMON,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi,
Qoraqalpog'iston xalq shoiri

Metall kombinatidan
Baxtli yo'l topib oldim.
Ma'danlarning ichidan
Oltin gul topib oldim.

Gulga ota-onasi
Temirdan yo'l tilagan.
Hazrat Dovud payg'ambar
Peshonasini silagan.

Shu yo'l asil yo'l ekan,
Bosgan izi gul ekan.
Temirlarni eritgan
Guldek nozik qo'l ekan.

Bildik gulning zotini,
Dilnoza der otini.
Prezident topshirdi
Davlat mukofotini.

Davlatimiz iqtisodini
Ko'taradi og'ir sanoat.
Bekobodda Metallurgiya
Kombinatda ajib sinoat.

Bir nozik gul cho'yan qozonda
Eritilgan temir quyadi.
Vo ajabo, zil-zambil temir
Qandoq qilib gulni sevadi?!

Metallurgiya kombinatida
Tadbirkor ish yuritadi gul.
Mehri bilan, nazokat bilan
Temirlarni eritadi gul.

Shu gul ko'kka, oy qulog'iga
Ta'qib qo'yar qo'sh sirg'asini.
Quyur osmono'par uylarning
Temir-beton qovurg'asini.

Armatura, rels, shvellər...
Qurilishning barchasi temir.
Shu gul temir zuvalasini
Pishitadi bamisli xamir.

Quyur yangi O'zbekistonning
Temir karkas minoralarini.
Bunyod etar yangi shaharlar,
Renessans imoratlarini.

Mashina ham, jadal ham metall,
Afsona ham, matal ham metall.
Mehnatningni elu yurt siylab,
Taqqan oltin medal ham metall.

Uyg'un bo'ldi metall bilan gul,
Gul baxsh etdi metallga ko'ngil.
Metallidan gul yaralar bugun,
Gul bo'lmasa, metall bo'lar kul.

Xudoyim fayz baxsh etdi elga,
Ezgu niyat keladi tilga.
Metallga aylanur bugun gul,
Metall bugun aylanur gulga.

Temirdek mustahkam sadoqat
Yuragida, ongu aqlida.
El-yurtiga muhabbatini
Izhor etar yurak shaklida.

Vatan deya she'rilar o'qiydi,
Temir erir, yonadi o'tib.
Shoirlardan tuhfa keltirdik,
O'ttiz besh gul, o'ttiz besh kitob.



Prezidentimiz tashabbusi bilan
kitobxonlik bo'yicha amalga oshirilayotgan
islohotlar bugun Sirdaryoning har bir
burchagiga kirib bormoqda.

YANGI O'ZBEKISTON



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

ILM, MA'RIFAT VA KITOB TUFAYLI BUGUNIMIZ NURLI, ERTAMIZ MUNAVVAR



Intilganga tole yor

Boshlanishi 1-betda

Har safar davlatimiz rahbari Sirdaryomizga ulkan-ulkan rejalar, bunyodkorlik g'oyalari bilan keladi. Men ham faol yoshlar qatori uchrashuvlarda bir necha bor ishtirok etish baxtiga muassas bo'lganman. Prezidentimiz o'z nutqlarining birida "Men Sirdaryoni o'zgacha yaxshi ko'raman", degan edi. O'sha onda beixtiyor qalbmizdan "Janob Prezident, biz sirdaryoliklar ham Sizni yaxshi ko'ramiz", degan munavvar o'y o'tgandi. Chin ma'noda bugun viloyatimiz o'z gacha tusha kirmoqda.

Yodimdan chiqmaydi, ko'shimcha mashg'ulotlar uchun tumanimizdan shaharga borardim va albatta, "Do'stlik" kanali yonidan, hozirgi "Yurt bayrog'i" xiyobonidan o'tardim. Ikki joyning ham atroflari begona o'tlar o'sib, dilni xira qiladigan darajada edi. Bugun "Do'stlik" kanali bo'yida "Hunarmandlar markazi", Texnopark qad rostlagan. Viloyatning otaxon oliygo'hi — Guliston davlat universiteti manzarani boyitib qo'r to'kib turibdi. Kanal bo'yi zamonaviy ko'rinish olib, oqshomlari yoshlar, mehmonlar bilan gavjum. Barcha o'rindiqdar band. Kimdir kitob o'qish, kimdir hamro'hi ila dalkash subhat qurish bilan ovora. "Yurt bayrog'i" xiyoboni ham muhtasham ko'rinishga ega bo'lib, joriy yilgi Navro'z shodiyonlari aynan mana shu maydondan boshlangan edi.

Endi bir gapni aytay, oldin Sirdaryoga boshqa viloyatdan mehmon kelsa, qayog'ga olib borishga o'ylanardik. Sababi, tanlov uchun imkoniyat yo'q edi. Bugun esa xiyobonlarimiz, markazlarimiz, kutubxonalarimiz, bog'larimiz bisyor. Bu esa kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shadi. Sirdaryodagi barcha sohada olib borilayotgan islohotlar haqida ko'p va xo'p gapirish mumkin. Ammo men aynan bir yo'nalish, ya'ni kitobxonlik mavzusida dilimdagilarni yozishga qaror qildim. Sirdaryolik kitobxon yoshlardan biri sifatida meni bu sohaga bo'lgan e'tibor hamisha g'ururlantiradi. Davlatimiz rahbari kitobni, kitobxonlarni juda yaxshi ko'radi. Buning isbotini dunyoda qiyosi bo'lmagan — "Yosh kitobxon" tanlovi misolida ham ko'rishimiz, u orqali millionlab o'zbek yoshlari kitobga oshno bo'layotganidan faxrlanishimiz mumkin. 2022-yilda men ham aynan shu tanlovda g'olib bo'lib, Prezident sovg'asi bilan taqdirlangan edim.

Bir voqea esimdan chiqmaydi. "Spark" bilan taqdirlanib uyga qaytganimdan keyin dadam yangi mashinada Farg'onaga — qarindoshlarni yo'qlab kelish uchun olib borgandi. Vodiyan qaytishda yo'lda adashib qoldik. Nabirlari bilan birga yo'l chetida o'tirgan nuroniy qarshisida to'xtab, yo'l so'radik. Bobo javob berar-bemas mashina oldi tomonidagi "Prezident sovg'asi" degan yozuvga qaradi.

— Bokschimisizlar?
— Yo'q, — dedim men.
— Futbolchimisizlar?
— Yo'q.
— ?
— Kitobxonman!

Otaxon "E-ha, o'qiganga ham mashina beriladigan zamonasiga balli", deb biz bilan bir oz sabhat qurdi. O'sha shu nuroniy bobo shunday ibratli gap aytdiki, o'sha so'zlar hamon qulog'im ostida jaranglab turadi.

— E bolam, bugun sizlar o'qib mashina yutayotgan kitoblarining yozganlar bir paytlar qon yutgan. Men bola edim, bir gal onam uyimizdagi barcha kitoblarni tandirga tashladi, yoqib yuboradimi desam, ustidan kul to'kib yashirdi. U paytda aqlim yetmagan edi. Keyinchalik bilsam, bu bobolarimiz yozgan kitoblar ekan. O'sha paytda hur fikrlik yo'q, nafaqat bunday kitoblar yozish, balki o'qish ham jinoyat edi. Ziyolilar shuning uchun kitoblarni yashirishga majbur bo'lgan. Bugun sizlar kitob o'qiganlaring uchun

mukofotlar o'lsangiz. Yana kimdan? Shaxsan Prezidentning o'zlaridan-a... Bunday zamonning ham, imkonning ham, imkon bergan ulug'larning ham qadriga yetish kerak, bolam.

Darhaqiqat, mamlakatimizda kitobxonlikka e'tibor milliy harakat darajasida yuksaldi. 2026-yil may oyining 22-sanasi. Davlatimiz rahbari tomonidan shu kuni Milliy kitobxonlik harakatiga start berildi. Bu xabarni ijtimoiy tarmoqlar orqali eshitib, qalbm iftixorga to'ldi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan kitobxonlik bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bugun Sirdaryoning har bir burchagiga kirib bormoqda. Birgina misol aytmoqchiman. Guliston davlat universitetiga kirishning chap tomonida o'tgan asrning 70-yillarida sport majmuasi sifatida poydevori qo'yilgan, ammo oxiriga yetkazilmagan tashlandiq inshoot oradan qariyb yarim asr o'tib, o'tgan o'quv yilida zamonaviy va muhtasham Axborot resurs markazi sifatida foydalanishga topshirildi. Yangi kutubxona bir vaqtning o'zida 700 nafar kitobxonga xizmat qila oladi. Bugun universitetimiz talabalari bo'sh vaqt topdi deguncha ushbu kutubxonaga oshiqdiki. Bu yerda yoshlar bilan turli loyihalar, ijodkorlar bilan subhatlar tashkil qilinadi.

Masalan, "Mutolaa maydoni" degan loyiha boshlaganmiz. Loyiha mazmuni shundan iboratki, har haftada bir yig'ilib, badiiy asar muhokama qilamiz. Muhokama yakunida birgalikda kelgusi muhokamamiz uchun bir asarni tanlaymiz. Bu esa



yoshlardagi mutolaa muhabbatini rivojlantiradi.

Bir kuni universitet rektori Muhsin Hojiyev meni chaqirib, "Yorqinjon, bilasan bu kutubxona o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. Buning zamirida Prezidentimizning islohotlari turibdi. Hozir talabalarimiz kutubxonada juda faol. Viloyatdagi barcha mahalla yoshlarini ham qamrab oladigan loyihalar qilish kerak. Toki barcha sirdaryolik yoshlar ushbu kutubxonadan unumli foydalana olsin. Bunda yosh kitobxon sifatida o'zing namuna bo'lishing kerak", dedi. Bu taklifdan juda xursand bo'ldim.

Ustozning so'zlaridan keyin mahallalaru ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ibot ishlarini olib bordik. Kutubxonamizga chorlov mazmuidagi kontentlar tayyorladik. Quvonarlami, hozir ushbu ARMDan nafaqat talabalarimiz, balki mahallalardagi uyushmagan yoshlar ham keng foydalanish imkoniyatiga ega. Maktab o'quvchilarini aytmayisizmi, bir kun Oqoltindan, ertasisga Sardobadan maktab o'quvchilari kutubxonamiz bilan tanishgani keladi. Ularning har biri bilan o'qiyotgan kitoblari borasida soatlab subhat quramiz va rejalar tuzamiz.

Biz sirdaryoliklarni xursand qiladigan yangi bir tashabbus To'ra Sulaymon uy-muzeyining qad rostlaganidir. Bu muzey tashabbuskori ham Prezidentimiz. Sirdaryo tumanidagi uchrashuvda

Yorqinjon HAYITBOYEV,
Guliston davlat universiteti yoshlar
yetakchisi, "Yosh kitobxon" tanlovi
g'olibi, "Mard o'g'lon" davlat
mukofoti sohibi

davlatimiz rahbarining bu tashabbusini yig'ilganlar birvarakayiga qo'llab-quvvatlagan edik. Bugun Mirzaobod tumanida To'ra Sulaymon uy-muzeyi qad rostlab turibdi. Muzeyga esa shoirming qizi Yulduz Begaliyeva rahbarlik qilmoqda.

U yerdagi ekspozitlar xilma-xilligi va tobora boyib borayotgani shoir she'riyatidan ilm qiluvchilarning safini ham kengaytirmoqda. Professor Ravshanbek Mahmudovning ta'kidlashicha, To'ra Sulaymon hayotlik chog'ida "olimlarimiz shoirlarni bo'lib olganday, biz cho'liklarning ijodini tadqiq qiladigan mard ham topiladimi", deb armon bilan aytgan ekan.

Shoirming armonlari bir oz kuttirgan bo'lsa-da amalga oshdi. To'ra Sulaymon uy-muzeyining tashkil etilishi, bu tashabbusning egasi shaxsan davlat rahbari ekan, muzeyda shoirming haykali qad kerib turgani, To'ra Sulaymonshunoslik adabiyot borasida ham, tilshunoslik borasida ham muhim ahamiyat kasb etayotgani, bir emas bir necha tadqiqotchilarning shoir ijodiyoti bo'yicha PhD dissertatsiyalarini himoya qilgani. Ehhe... bularning barini To'ra bobo ko'rganlaridami, juda xursand bo'lar va albatta, xuddi "Gul bir yon, chaman bir yon"dek ovoza bo'ladigan asar yaratar edi.

Men ham ilmiy ishimni "To'ra Sulaymon she'riyati poetikasi" mavzusida tanladim. Magistratura davrida ikki yil mobaynida ustozlar bilan birga izlanishlar olib bordik. Bu borada, ayniqsa, To'ra Sulaymon uy-muzeyi bizga juda qo'l keldi. Dissertatsiyamizning "To'ra Sulaymon ijodiy laboratoriyasi" bobini tayyorlashda to'liq muzey materiallariga, muzey direktori — Yulduz Begaliyevaning ma'lumotlariga suyardik. Yaqinda himoyamiz o'tdi. Tanliq adabiyotshunos olimlar, muhaqqidlar qarshisida mavzu doirasidagi izlanishlarim natijalarini himoya qildim.

Endilikdagi ilmiy izlanishlarimni ham Sirdaryo adabiy muhiti, xususan, To'ra Sulaymon she'riyatiga bag'ishlamoqchiman. Ana shundaygina kitobxon sifatida yurt menga bergan imkoniyatlarga javob qaytarish yo'lida munosib qadammni tashlagan bo'lganman.

Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator, Kitobxonlikni rivojlantirish jamg'armasi Vasiyli kengashi raisi Alisher Sa'dullayev yaqinda Sirdaryoda, aynan, bizing universitetimizda, yangi kutubxonamizda bo'ldi va kitobxon yoshlar bilan muloqot qildi. Uchrashuvda ularning tavsiyasiga ko'ra, Sirdaryo viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'ining Kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi lavozimiga tayinlandim. Albatta, bu men uchun katta mas'uliyat. Avval o'zim Sirdaryoda kitobxonlik tanlovlarda peshqadamlik qilgan bo'lsam, endilikda boshqalarning peshqadam bo'lishi uchun harakat qilishim kerak.

Hozir yangi tashabbuslarga kirishdik. Viloyatdagi barcha mahallalarda faoliyat olib borayotgan Yoshlar yetakchilari o'rtasida "Sirdaryolik kitobxon yoshlar yetakchisi" tanlovi o'tkazildi. Mahalla yoshlarining dardu tashvishi bilan yashaydigan yoshlar yetakchilari o'rtasidagi tanlov juda qizg'in kechdi. Ochiq gap, mahallada kitobxonlikni targ'ib qiluvchi katta kuch ham aslida ana shu yetakchilar. Endi tasavvur qilaylik,

targ'ibot qiluvchi yoshlar yetakchisining o'zi kitob o'qimagani bo'lsa, natija bo'ladimi? Yo'q, albatta. Shuning uchun ham asosiy e'tiborni birinchi galda mahalla yoshlar yetakchilariga qaratdik va birgina tanlov orqali ularga liderlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi yigirmaga yaqin kitoblarni o'qita oldik.

Tanlov natijalariga ko'ra Xovos tumani Istiqlol mahallasi yoshlar yetakchisi Qurbonboy Mirsidiqov birinchi o'rinni, Oqoltin tumani Yangi davr mahallasidan Mohira Abdumajidova ikkinchi, Mirzaobod tumani Mirzacho'l mahalla yoshlari sardori Qahramon Mamasoliyev uchinchi o'rinni egalladi. G'oliblarga viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasi tomonidan ta'sis etilgan "Sirdaryolik kitobxon yoshlar yetakchisi" ko'krak nishoni taqdim etildi.

Ayni kunlarda sirdaryolik ijodkor yoshlarning bayozlarini tayyorlash ustida ish olib boryapmiz. Shuningdek, "Eng yaxshi kitobxon", "Eng yaxshi taqiz", "Eng yaxshi kitobxon xodim" tanlovlarni o'tkazishni ham reja qilganmiz. Tashabbuslarimizdan yana biri — "Mutolaa marrasi" loyihasi. Uning doirasida o'quv jarayoni payti viloyat Yoshlar markazida haftaning har chorshanba kuni yig'ilib, "Mutolaa" ilovasidan bir hikoyani omnaviy ravishda tinglayapmiz va yakunda ana shu hikoya asosida tuzilgan testlarni yechyapmiz. Test natijalariga ko'ra g'oliblar joyida "Mutolaa" premium kartochkalarini hamda boshqarmaning diplom, esdalik sovg'alari bilan taqdirlanaypti.

30-iyun — Yoshlar kuni hech qachon yodimdan chiqmaydigan sana bo'ldi. Shu kuni Prezidentimiz bilan Toshkentdagi Kongress-xoll majmuasida uchrashgan edik. Men birinchi qatorda o'tirdim. Besh soatdan oshiq davom etgan uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari biz tomonga yurib kela boshladi va har bir yosh bilan ko'rishdi. Xayolimda "Prezidentga u gapni aytaman, bu gapni aytaman", deb turganida bir voqea sabab hamma gaplarim yodimdan chiqib ketdi. Davlatimiz rahbari biz tomonga kelarkan, menga qarab "Sirdaryolar tinchmi, Yorqinjon? Kitobxonlar qanday?", deya qo'l uzatdi. Shu onda Prezident meni tanir ekan-a, menga savol beryapti, kitobxonlarni so'rayapti, deb hayratda qoldim, hayajondan ko'zlarim porlardi. Yuragimda nima bo'lsa, borini aytdim.

— Hurmatli Prezident, sirdaryoliklar sizni sog'ingan. Barchalaridan salom olib keldim. Biz yoshlar uchun yaratayotgan tashabbuslaringiz uchun rahmat. O'lgan safar uchrashganimizda ota-onamga salom aytgan edingiz. Bu safar ularning salomini Sizga olib keldim, — dedim.

Prezidentimiz kulib: "Unday bo'lsa, yana mening nomidam salom va rahmatimni yetkazib qo'y. Sizlarga ishonaman, sizlar bor kuchingiz bilan yangi O'zbekistonimiz uchun harakat qilinglar", dedi.

Ochiq'i, ana shu onda Prezidentimizning qo'llarini qo'yib yuborgun keldim. Axir shu qo'llar-kuz biz yoshlarning boshimizni silayotgan. Axir shu qo'llar-kuz bizning bugunimiz, kelajagimiz uchun muhim qarorlarga imzo chekayotgan. Dilimda aytar juda ko'p gaplarim qoldi, ularni esa kelgusi uchrashuvlarga asrab qo'ydim.

Biz sirdaryoliklar bugungi islohotlarni va ayniqsa, kitobxonlik madaniyatiga keng e'tibor qaratilayotganini yaxshi tushunamiz. Uning qay darajada mashaqqatli ekanini ham, dunyoda suronli siyosiy jarayonlar kechayotgan bir paytda yurtimizda ilmu ma'rifatga ulkan e'tibor berilishining mohiyatidagi pokiza niyatlarini ham anglaymiz va albatta, yurtimiz kutgandek, mamlakatimiz yetakchisi orzu qilganidek ma'rifatli jamiyatni, yangi O'zbekistonni, yangi O'zbekistonda esa Uchinchi Renessansni bunyod eta olamiz.

Bu yo'lida barcha yoshlarni birlashishga, kitobxonlik borasida yangidan yangi tashabbuslar istida ishlashga chorlayman. Sababi, ilm, ma'rifat, kitob tufayli bugunimiz nurl, ertamiz esa yanada munavvar bo'ladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cair: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov
Musahhih: Akbar Qarshiye
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy